



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

O‘ZBEKISTON QUROLI KUCHLARI TUZILMALARIDA AYOL HARBIY XIZMATCHILARNING JANGOVAR SHAYLIGINI TA’MINLASHDA SPORT O‘YINLARINING AHAMIYATI TO‘G‘RISIDA

Samatova Lola Yusupovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston armiyasida xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan milliy va xalqaro sport o‘yinlari to‘g‘risida qisqacha bayon etiladi. Shuningdek, sport musobaqalari va tanlovlarning ayol harbiy xizmatchilar jangovar qobiliyati va professional mahoratini oshirishda tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: To‘maris, sport o‘yinlari, sport musobaqalari, ayol harbiy xizmatchilar, jismoniy tayyorgarlik, maxsus harbiy sport turlari, jahon chempionlari.

О ЗНАЧЕНИИ СПОРТИВНЫХ ИГР В ОБЕСПЕЧЕНИИ БОЕВОЙ ГОТОВНОСТИ ЖЕНЩИН-ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В СТРУКТУРАХ ВООРУЖЁННЫХ СИЛ УЗБЕКИСТАНА

Саматова Лола Юсуповна

Узбекский государственный университет мировых языков, независимый исследователь

Аннотация

В статье кратко описываются национальные и международные спортивные соревнования, проводимые среди женщин-военнослужащих узбекской армии. Также рассматривается роль спортивных соревнований и конкурсов в повышении боеспособности и профессиональных навыков женщин-военнослужащих.

Ключевые слова: Тумарис, спортивные игры, спортивные состязания, женщины военнослужащие, физическая подготовка, специальные военные виды спорта, чемпионы мира.

ON THE IMPORTANCE OF SPORTS GAMES IN ENSURING THE COMBAT READINESS OF FEMALE MILITARY PERSONNEL IN THE STRUCTURES OF THE ARMED FORCES OF UZBEKISTAN

Samatova Lola Yusupovna

Uzbekistan State World Languages University, Independent Researcher

Abstract

This article briefly describes national and international sports competitions held among female military personnel of the Uzbek army. It also examines the role of sports competitions and contests in enhancing the combat readiness and professional skills of female military personnel.

Keywords: Tomyris, sports games, sports competitions, female military personnel, physical training, special military sports, world champions.

Milliy tariximizda Vatan sha'ni, xalq ozodligi uchun yovga qarshi janglar, qonli urushlar olib borgan, aziz jonini fido qilgan ulug' va bahodir sarkardalarimiz ko'p. Ammo ular

orasida bir umr otning ustida yurib Vatanining har bir qarich tuprog'ini dushmandan himoya qilish, ona yurt ozodligi va fuqarolarining hurligi yo'lida nozik qo'lga qilich olib, umrini harbiylikka baxshida etgan massagetlar malikasi To'marisning tarixi ming asrlar o'tsa hamki, yoshu qarini hayratdan va faxrlanishdan to'xtatmaydi. O'zbek tarixida o'chmas iz qoldirgan ushbu ayolning qat'iyatliligi, shijoati va vatanparvarligi yosh avlod uchun chinakam ibrat namunasi bo'lib qoladi.

Darhaqiqat, har bir millat va xalqning o'z qahramonlari bo'lgani kabi o'zbeklarning chinakam ayol qahramoni deya shubhasiz To'marisni keltirishimiz mumkin. Massagetlar yo'l boshchisining jang san'atini mukammal egallagani va janglarda chiniqqanligi, yuqori harbiy ilmga ega bo'lganligi uning ko'p sonli qo'shin lashkarboshisi sifatida shahanshoh Kir II ni mag'lub etishiga sabab bo'lgan.

Antik davr tarixchisi Gerodot tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qadimdan ayollar erkaklar kabi harbiy jang san'ati siru-asrorlarini o'rganishgan, ot ustida nayza va kamondan o'q otish mashqlarini bajarishgan. Hattoki Iskandar Zulqarnayn yoxud Amir Temur qo'shinlarida ham kuchli harbiy salohiyatga ega ayollar bo'linmalarining bo'lganligi, ularning janglarni mohirona olib borishlari jang maydonida dushman tomondagi erkaklarni lol qoldirganliklari to'g'risidagi ma'lumotlar turli xalq tarixchilarning asarlarida tilga olinadi.

Tarix bir joyda to'xtamaydi, u o'z makoni, vaqti va qahramonlarini yaratishda davom etaveradi. Necha ming yillar oldin o'zining vatanparvarlik va fidoyilikka yo'g'rilgan tarixini qoldirgan To'maris momomizga xos bo'lgan fazilatlar zamonamiz ayollari siymosida ham davom etmoqda va uning munosib avlodlarini O'zbekistonning istalgan burchagida harbiy libos kiyimida uchratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida erkaklar bilan yelkama-yelka xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilarimiz sadoqat, shijoat va mardlikni namoyon etgan holda harbiy xizmatlarini sharaf bilan o'tashmoqda. Oila va harbiy xizmat vazifalarini birdek muvaffaqiyatli bajarib kelayotgan o'zbek ayol harbiy xizmatchilari Vatan himoyasidek maqsad yo'lida turli yo'nalishlarda (tibbiyot, aloqa, psixologik, ish yuritish va h.k.) o'z majburiyatlarini ado etishmoqda.

O'zbekiston armiyasida o'z matonati va kasbiy mahorati bilan yurt tinchligiga hissa qo'shib kelayotgan ayol harbiy xizmatchilarning jangovar qobiliyati hamda ruhiyatini yuksaltirishda jismoniy tayyorgarlikning o'rni katta. Zero, sport bilan muntazam shug'ullanish nafaqat qomatning go'zal bo'lishini ta'minlaydi, balki sog'liq, o'ziga ishonch va hatto ijtimoiy faollikni ham oshiradi. Ayol harbiylar orasida qo'l jangi, o'q otish, yugurish va yengil atletika kabi sport turlari keng ommalashgan bo'lib, muntazam ravishda harbiy sport musobaqalari tashkil etiladi va bu ularning professional mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Tibbiyot sohasi mutaxassislarining ma'lum qilishlaricha, muntazam jismoniy mashqlarni bajarish insonda yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, chidamlilikni oshiradi va vaznni nazorat qilishga yordam beradi, ko'plab surunkali kasalliklarning oldini oladi. Shuningdek, doimiy jismoniy faollik endorfinlar — "baxt gormonlari" ishlab chiqarishni rag'batlantirish, stress va depressiyaga qarshi kurashning samarali vositasi hisoblanadi. Yurish, yugurish, jismoniy mashqlar suyaklar, mushaklar va bo'g'inlarni mustahkamlashga yordam beradi [1].

Yana bir muhim jihati, sport odamlarni birlashtiradi. Mashg'ulotlar davomida insonlar hamfikrlar bilan tanishadi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bular esa ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o'ynaydi.

Jahonning nufuzli xalqaro tadqiqot markazlarining fikricha, O'zbekiston dunyo davlatlari orasida xotin-qizlar sportini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallab keladi. O'zbekistonlik sportchi qizlar ko'plab xalqaro va olimpiada

musobaqalarida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha oldingi o'rinda turadi [2].

O'zbekistonda Mudofaa vazirligi va boshqa kuch tuzilmalarida harbiy ayollarning jismoniy tayyorgarligi va sport faoliyati, jumladan harbiy ayollar uchun majburiy jismoniy mashqlar, imtihonlar va sport musobaqalarini (masalan, [qo'l jangi](#), [yugurish](#), [to'siqlar osha yugurish](#)) o'tkazish tartibi asosan O'zbekiston Respublikasining [«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»](#)gi Qonuni (yangi tahriri) [3] va vazirliklarning (Mudofaa, IIV, Milliy gvardiya) ichki buyruqlari hamda [Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnomalari](#) bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar ayol harbiy xizmatchilar uchun yosh toifasiga qarab maxsus me'yorlarni belgilaydi.

Respublika hududlarida O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan 2005-yildan boshlab gimnastika, sog'lom avlod, oila mavzulari bo'yicha turli shiorlar ostida sport musobaqalari tashkil etilib, ularda har yili 500 mingdan ortiq xotin-qizlar ishtirok etmoqda [4].

Ayniqsa, harbiy ayollar o'rtasida har yili o'tkaziladigan xalqaro va milliy sport o'yinlari hamda musobaqalar jismoniy chidamlilik, tezkorlik va jamoaviy ruhni oshirishga qaratilgan bo'lib, ular asosan ko'pkurash, to'siqlardan oshib o'tish, o'q otish, qo'l jangi, yugurish (turli masofalarga – 1-3 km ga) va jamoaviy sport o'yinlari (voleybol, basketbol va futzal) kabi turlarni o'z ichiga oladi. Ushbu musobaqalar ayol harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini va jismoniy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Ana shunday milliy sport ko'rik-tanlovlardan biri **“Matonat malikasi”** – mamlakatimizda bahorning ilk bayrami 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida odatda Milliy gvardiya yoki boshqa harbiy-huquq tizimlarida xizmat qilib kelayotgan hamda hududiy bosqichda g'olib bo'lgan ayol harbiy xizmatchilar, xodimlar va kursantlar o'rtasida tashkil etiladi [5].

Bellashuv jarayonlari hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan kuzatib borilib, ishtirokchilar saf hamda o'q otish tayyorgarligi, ot sporti, kamondan otish, o'zbek millatining tarixi va kelajagida chuqur iz qoldirgan, millatning fidoyi xotin-qizlarining hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot berish shartlari bo'yicha o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadilar. Tanlovning ikkinchi bosqichi esa o'zgachaligi bilan ajralib, unda harbiy qizlar “Milliy liboslar ko'rgazmasi”, “Maftunkor ayol”, “Matonat malikalari”, “Millatning fidoyi xotin-qizlari” nominatsiyalari bo'yicha ishtirok etadilar.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va jismoniy tayyorgarlikni oshirish maqsadida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab har yili an'anaviy **“Ayollar spartakiadasi”** o'tkaziladi [6]. Musobaqada vazirlikning turli qo'shinlari va hududiy bo'linmalaridan jami 15 ta jamoa 200 nafarga yaqin sportsevar ayol harbiy xizmatchilar yakkalik va jamoaviy sport turlarida o'z professional mahoratlarini namoyon etadilar, 10 ga yaqin sport turlari (arqon tortish va voleybol) ishtirokchilarning harbiy hamjihatligini va jamoaviy harakat qilish qobiliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Musobaqalar so'ngida esa g'olib va sovrindor sportchilar tantanali ravishda taqdirlanadilar hamda “Eng namunali jamoa”, “Eng faol jamoa”, “Eng nafis libosdagi jamoa” kabi nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantiriladi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda kuch tuzilmalari safida mardonavor, Vatanga sadoqat bilan fidokorona xizmat qilib kelayotgan harbiy xotin-qizlar o'rtasida har yili an'anaviy tarzda **“To'maris izdoshlari”** respublika ko'rik-tanlovi ham o'tkaziladi [7]. Ushbu tanlov ayol harbiylarda yuksak jangovar tayyorgarlikni oshirish, yetakchilik xususiyatlarini rivojlantirish, sog'lom, ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish kabi maqsadlarni ko'zlagan holda tashkil etiladi, yurt himoyasida turgan jasoratli xotin-qizlarning salohiyati, bilimdonligi,

jismoniy va kasbiy tayyorgarligini namoyon etadi.

Mazkur tanlov odatda Toshkent shahrida Yangi O'zbekiston bog'ida joylashgan "Mustaqillik monumenti" poyiga gulchambar qo'yish marosimi bilan boshlanadi. Ushbu ramziy ehtirom tadbirida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi — Bosh vazir o'rinbosari Zulayho Maxkamova, tegishli vazirlik va idoralar mas'ullari, tanlov ishtirokchilari hamda jamoatchilik vakillari qatnashadi.

Ko'rik-tanlovda Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya hamda Bojxona qo'mitasi tizimida faoliyat yuritayotgan harbiy xotin-qizlardan iborat 6 ta jamoa bellashadi. Tanlov avvalida ayol harbiy xizmatchilar intizom, vatanparvarlikni namoyon etuvchi tantanali harbiy paradlarni amalga oshirgandan so'ng jismoniy va nazariy bellashuvga o'tadilar.

Ishtirokchilar o'z bilim, jismoniy va harbiy tayyorgarlik darajasi, ijodiy salohiyat va jamoaviy hamkorlik bo'yicha qator shartlar doirasida sinovdan o'tadilar. Bunda ayollarning nafaqat aqliy salohiyatlari, balki jismoniy epchilliklari ham e'tiborga olinadi.

Shuningdek, tanlovning barcha bosqichlari – jamoani tanishtirish, pazandalik, intellektual savollar, harbiy-tibbiy tayyorgarlik, otish, jismoniy mashg'ulotlar, ijodiy chiqishlar va hayotiy ko'nikmalarga asoslangan topshiriqlardan iborat bo'lib, baholash sohaning yetuk mutaxassisleri tomonidan adolatli mezonlar asosida olib boriladi, faol, ahil va mohir jamoalar taqdirlanadi.

Yevropada ham ayol harbiy xizmatchilar uchun sport musobaqalari doimiy ravishda o'tkazib boriladi va maxsus harbiy hamda umumiy sport turlaridan iborat bo'ladi (masalan, ko'pkurash, o'q otish, erkin kurash va oriyentirni topish).

Yevropa poligonlarida (misol uchun Germaniyada) maxsus harbiy sport musobaqalaridan biri ***Strong Europe Tank Challenge ("Kuchli Yevropa")*** tank musobaqasi bo'lib, unda aralash (erkak va ayol) hamda ayol ekipajlar o'z jangovar mahoratlarini namoyish etishadi [8].

Shuningdek, Yevropa davlatlari armiyalarida (jumladan Latviya, Germaniya, Fransiya) tashkil etiladigan **milliy musobaqalar** qurolli kuchlardagi ayol harbiylarning kasbiy mahoratini va jismoniy chidamlilikni mustahkamlaydi.

Mintaqaviy chempionatlarda esa ayol harbiylar suzish, voleybol, yengil atletika, shuningdek, maxsus harbiy sport turlari (harbiy-amaliy suzish va o'q otish) bo'yicha bellashadilar.

[Xalqaro harbiy sport kengashi](#) tomonidan ham harbiy ayollar o'rtasida xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari tashkil etiladi. Bunda ayollar xalqaro arenada erkaklar bilan teng ravishda yakka va jamoa bo'lib, quroldan otish, zamonaviy beshkurash, yengil atletika, parashyut va harbiy-amaliy sport turlarida bellashadilar, yuqori darajadagi kasbiy va jismoniy tayyorgarlikni namoyon etadilar. Shuningdek, harbiy o'yinlar turli mamlakatlar harbiy xizmatchilari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlaydi va sportning keng tarqalishi imkoni beradi.

Shu o'rinda Xalqaro harbiy sport kengashi (**International Military Sports Council (IMSC)** yoki **Conseil International du Sport Militaire (CISM)**) [9] tashkilotchiligi ostida o'tkaziladigan yirik xalqaro sport tadbirlariga – Butunjahon harbiy o'yinlar, Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi jahon chempionati va harbiy xizmatchilar o'rtasida futbol bo'yicha jahon kubogiga to'xtalib o'tsak.

Butunjahon harbiy o'yinlar (Military World Games) – bu haqiqiy harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun har 4 yilda bir marta o'tkaziladigan xalqaro sport musobaqalari bo'lib, klassik (yengil atletika, suzish, o'q otish) va amaliy sport turlari (harbiy beshkurash [10], parashyutli sport, suv beshkurashi) bo'yicha bellashuvlar olib boriladi [11]. Asosiy maqsadi turli mamlakatlar armiyalari o'rtasida do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash bo'lgan mazkur

o'yinlarda 100 dan ortiq davlatlarning minglab sportchi harbiy xizmatchilari ishtirok etadi va bu o'yinlar Olimpiya o'yinlariga faqat harbiy yo'nalishda tenglashtiriladi.

Butunjahon harbiy o'yinlar harbiylar o'rtasida birinchi marta 1995-yilda Rim shahrida Ikkinchi jahon urushi tugaganligining 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan bo'lib, shu vaqtdan boshlab yozgi o'yinlar har 4 yilda bir marotaba, 2010-yildan esa qishki o'yinlar o'tkazila boshlangan.

VII yozgi o'yinlar oxirgi marta 2019-yilda Xitoyda tashkil etilgan bo'lib, unda 45 ta sport turlari (jumladan marafon ham) bo'yicha bellashuvlar olib borilgan. Ushbu o'yinlarda mamlakatimiz jamoasi tarkibida ayollardan Nigina Sharipova (100 m, 200 m) va Nadiya Dusanova (balandlikdan sakrash) ishtirok etishgan. III qishki o'yinlar esa so'nggi bor 2017-yilda Sochi (Rossiya) shahrida o'tgan.

Shu o'rinda aytish joizki, sportchi harbiy qizlarimiz xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari va Olimpiadalarda O'zbekiston davlatini sharafiga himoya qilib, faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Bunga misol tariqasida Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyaning bir necha ayol harbiy xizmatchilarini keltirish mumkin:

dzyudo bo'yicha oltin medal sohibasi katta leytenant Diyora Keldiyorova;

qol janggi boyicha oltin medal sohibasi Mahliyo Xabibullayeva;

boks boyicha oltin medal sohibasi Navbahov Xamidova;

boks boyicha bronza medali sohibalari Feruza Kazakova, Aziza Zokirova, Sohiba Ro'zmetova, Oltina Sotimboyeva;

taekvondo boyicha oltin medal sohibalari Feruza Sodiqova va Gulsanam Alijonova;

taekvondo bo'yicha kumush medal sohibalari leytenant Svetlana Osipova va Madina Mirabzalova;

taekvondo bo'yicha bronza medal sohibalari Samira Adashaliyeva, Zuxra Todjimato'va, Marjona Primova, Ozoda Sobirjonova;

karate bo'yicha oltin medal sohibasi Gulshan Alimardonova va boshqalar [12].

Bu kabi yutuqlar xotin-qizlarning harbiy va jismoniy tayyorgarlikda dunyo miqyosida yetakchi ekanligini ko'rsatadi, nomlari keltirilgan sportchi qizlarimiz esa O'zbekiston kuch tuzilmalarida kuchli va professional ayollarning yangi avlodiga belgisiga aylanishdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston xotin-qizlariga ko'rsatilayotgan e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli sportga munosabat tubdan o'zgarmogda.

Keyingi yillarda ayollar o'rtasida sportni rivojlantirish va ularni sport tadbirlariga keng jalb etish maqsadida Respublikamiz bo'ylab ayollar sport musobaqalari va spartakiadalari uyushtirilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, "Vatanparvar" Markaziy kengashlari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan harbiy xizmatchi ayollar o'rtasidagi sport musobaqalari alohida e'tirofga sazovor. Sababi bunday musobaqalarning maqsadi sport orqali aholining, jumladan barcha yoshdagi xotin-qizlarning Vatanga muhabbat, o'z mamlakati uchun g'urur va faxr ruhida tabiyalash, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash va ayollarning jismoniy faolligini ta'minlashdan iborat.

Bundan tashqari, jahon miqyosida ham o'tkazilayotgan sport tadbirlarida O'zbekiston Qurolli Kuchlar tuzilmalari ayol harbiy xizmatchilarining faol ishtiroki yurtimizda millat kelajagi bo'lgan xotin-qizlarga bildirilgan e'tibordir, ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini hamda har tomonlama salomatligini

ta'minlash yo'lidagi izchil siyosatning amaliy isbotidir.

Umuman olganda sport tanlovlari va musobaqalar harbiy ayollarda jasorat va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga, ularning jismoniy va ruhiy tetikligini ta'minlashga hamda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Eng asosiysi, sport yo'nalishida faollik va shijoatni ko'rsatib kelayotgan, jahon arenalarida Vatanimiz sharafiga himoya qilib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan ayol harbiy xizmatchilarni nafaqat xizmatdagi burchini ado etayotgan, balki yosh avlod uchun Vatanga sadoqat va mardlik timsoliga aylangan ayollar deb ta'riflash mumkin. Zero, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yurtimizda mehnatkash, olijanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifamiz etib belgilangan"[13].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://daryo.uz/2023/11/28/har-bir-ayol-sport-bilan-shugullanishi-muhimligini-isbotlovchi-kopchilik-bilmaydigan-10-ta-sabab/>
2. Омонова С.О. Ўзбекистонда хотин-қизлар спортини йўлга қўйиш ва ривожлантириш иши тарихи (1991-2021 йй). Тарих фан.бўйича фалсафа док. дисс. – Қарши, 2022. – Б. 13-14.
3. <https://lex.uz/mact/-2742233>
4. Шакаржонова К.Т., Джалилова Л.А. Ўзбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши // Замонавий таълим, 2016. – №6-сон. – Б. 63 – 70.
5. <https://milliygvardiya.uz/uz/news/v-svjazi-s-per01>
6. Vatanparvar gazetasi, 2025. – №11-son. – В. 18-19.
7. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. – Т., 2005. –Б.142.
8. https://ru.wikipedia.org/wiki/Танковые_соревнования_«Сильная_Европа»
9. Xalqaro harbiy sport kengashi (CISM – Conseil International du Sport Militaire) – 1948 yilda tashkil etilgan, 140 dan ortiq mamlakat a'zo bo'lgan yirik xalqaro tashkilot. Uning bosh maqsadi "Sport orqali do'stlik" shiori ostida harbiylar o'rtasida jismoniy tayyorgarlikni oshirish, tinchlikni mustahkamlash va harbiy xizmatchilar o'rtasida hamjihatlikni rivojlantirish. Tashkilot harbiylar o'rtasida jahon chempionatlari va 4 yilda bir marta jahon harbiy o'yinlarini o'tkazadi.
10. Harbiy beshkurash – bu sportning harbiy-amaliy turi bo'lib, 5 ta bo'limlarni o'z ichiga oladi – ayollar uchun 5,45 mm li Kalashnikov avtomatidan 100 m masofadan o'q otish, to'siq chiziqlarni 400 m ga yugurib yengib o'tish, 50 m masofaga to'siqlarni suzib o'tish, aniqlikka va uzoqlikka 370 g li granatani uloqtirish va 4 km masofaga kross yugurish. Musobaqa ayollarning chidamlilik, kuch va malakasini tekshirishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Xalqaro zamonaviy beshkurash ittifoqiga (UIPM) a'zo.
11. https://uzathletics.uz/news/news_post/vsemirnye-voennye-igry
12. <https://gov.uz/ru/mudofaa/news/view/59705>, <https://www.gazeta.uz>
13. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 2024-yil 7-mart // <https://president.uz/uz/lists/view/7076>